

# Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni munosabati bilan kimyo korxonalarida qator tadbirlar o'tkazildi

// 30.04.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/butunjahon-mehnatni-muhofaza-qilish-kuni-munosabati-bilan-ki>



"28-aprel – Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni" munosabati bilan kimyo korxonalarida qator tadbirlar o'tkazildi.



- "Dehqonobod kaliy zavodi" Ajda mas'ullar hamda ishchi-xodimlar ishtirokida muloqot tashkil etildi.
- "Qo'ng'irotda soda zavodi" MChJ QKda bo'lib o'tgan "Mehnat muhofazasi bilimdoni" ko'rik tanlovida faxrli o'rinlarni egallagan xodimlar estalik sovg'alari bilan taqdirlandi.
- Sana munosabati bilan "Navoiyazot" Ajda o'tkazilgan tadbirda korxonaning mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'limi xodimlari faoliyati e'tirof etildi. Shuningdek, korxonaning mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'limi hamda jamiyat kasaba uyushmasi qo'mitasi vakillari ishtirokida ishlab chiqarish majmualari, sexlarda nazorat tadbirlari o'tkazildi.





- “Qizilqum fosforit kompleksi” MChJda xodimlarni xavfsiz va qulay ish sharoiti bilan ta’minlash va ularning tayyorgarligini tekshirish maqsadida “Eng yaxshi mehnat muhofazasi bo’yicha vakil” va “Eng yaxshi mehnat muhofazasi bo’yicha ishchi” tanlovlari o’tkazildi.
- “Maxam-Chirchiq” AJda sana munosabati bilan korxona ishchilari ishtirokida davra suhbatlari tashkil etildi. Mas’ullar tomonidan sohadagi muammolar va ularning yechimlari yuzasidan fikr - mulohazalar tinglandi.



- “Ammofos –Maxam” AJ O‘zbekiston Kasaba uyushmalari harakatining 120-yilligi va “butunjahon mehnatni muhofaza qilish” kuni munosabati bilan o‘tkazilgan Respublika tanlovining 1-bosqichida “Eng yaxshi kasaba uyushma tashkiloti” “Eng yaxshi tashkilot”, “Eng yaxshi mehnat muhofazasi vakili” nominatsiyalari bo‘yicha faxrli o‘rinlarni egalladi.









"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati